

## BOLALARDA TABIATGA MUNOSABAT ODOBINI TARBIYALASH

Ruzimboyeva Xusnura Raximberganovna, Matchonova Nilufar Ismoilovna

Xorazm viloyati, Shovot tumani 39-  
son DMTT tarbiyachilari

### ANNOTATSIYA

Maqolada MTT tarbiyachilarining mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda atrof-olam, tabiatga bo'lgan munosabat odobi, tirik jonzotlarga nisbatan mehr-shavqat, vatanparvarlik tuyg'usi shakllantirish, tabiatni asrab avaylash ko'nikmalarini rivojlantirish ishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* atrof-muhit, bolalar, havo, o'simliklar, fasl, tabiat, tarbiyachi, ekologiya.

Inson onadan tug'ilib, olamga kelgan chog'idanoq tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi. Ilk bor havodan to'yib nafas oladi. Odamzot o'sib-unish uchun oziq-ovqat, suv, quyosh, harorati juda zarur bo'lib, u bularning hammasini tabiatdan oladi. Tabiat musaffo bo'lsa, odam ham sog'lom, baquvvat o'sadi.

Odam har nafas olganda uning o'pkasiga yarim litrgacha havo kiradi. Odam bir minutda 16-18 marta nafas oladi yoki tanaga 8-9 litr havo kiradi. Bu miqdor bir kecha-kunduzda 11 ming litrdan ortadi. Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o'pkada gaz almashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu insonning sog'lig'ini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi.

Tabiat shunday odil mo'jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o'simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak o'simliklar dunyosi, ramziy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidrididan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Bunday inson o'z atrofini o'rab turgan tabiatni, uning o'simliklar dunyosini ko'z qorachig'iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo'lidan kelganicha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan.

Muhammad allayhissalom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: "Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, behosdan qiyomat qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz, uni ekib qo'ying".

Inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak ham tabiatdan olinadi, hattoki insonning xastalikdan qutulishi, salomatligini tiklashi uchun zarur bo'lgan dori darmonlar ham ona-tabiatda yetishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a'zo bo'lmagandek, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo'q. Ularning hammasi hayot uchun zarur. Bugungi kunda sayyoramiz ekologiyasi keskin buzilmoqda. Daraxtlarning kesib yuborilishi, qush va hayvonlarning shavqatsizlik bilan ovlab yo'q qilinishi tabiat muvozanati qonunlarining buzilishiga sabab bo'ldi va bo'lmoqda. Dengiz va daryolarga, okeanlarga neft qoldiqlari quyilib, yer yuzidagi suv ekologiyasi tubdan izdan chiqarilmoqda. Inson uchun quyosh

nuri, toza havo, toza suv naqadar zarur bo'lsa, ona zamin ham shunday zarur, uni asrab-avaylash insonning o'z qo'lidadir.

Bolalarda tabiatga nisbatan aqliy, estetik munosabatlar ham, u o'zlashtirayotgan bilimlarning mazmuni ham aynan atrof-olam, tabiatni asrab avaylash bilan bevosita bog'liqdir. Ekologik mazmun bilan bog'liq bo'lgan bilim tabiatda bolalar faoliyati va ularning o'zini tuta bila olishi, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo'naltiradi. Tabiatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda bolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi tabiat qonunlari bo'yicha bilim alohida o'rin egallaydi. Tabiatga nisbatan bo'lgan munosabatni rivojlantirish (mashg'ulot, ekskursiya, sayr qilish kabi hayotiy vaziyatlar) bolaning ma'naviy-ijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil qilish bilan yakindan bog'liq.

Tarbiyachi bolada tirik jonzotga nisbatan achinish, uni asrab-avaylash, jonli tabiat bilan uchrashganda undan bahra olish, quvonish, taajjublanish, o'zining qilgan ishidan mag'rurlanish, qoniqish hissini uyg'ota bilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat, yilning turli fasllarida unda ro'y berib turadigan o'zgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Hosil qilingan bilimlar asosida tabiat hodisalarini aniq tushuna bilish, qiziquvchan bo'lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita olish, jamiki tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash kabi fazilatlar shakllanib boradi.